

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

10-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5/10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

Ismoilov Ubaydulla Mamat o'g'li

SUYIRLITEPA YODGORLIGIDA OLIB BORILGAN ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR

VA TOPILGAN AYRIM TANGALAR TAHLILI 11-19

Saidboboyeva Gulzora Nematjonovna

O'ZBEKISTON ELEKTR ENERGETIKA SANOATI RIVOJIDA D.P.ROZITNING O'RNI 20-24

Umarov Sardor Yakubovich

XX ASRNING OXIRI-XXI ASR BOSHIDA GERMANIYA DAVLAT MOLIYASI VA

BIRLASHTIRISHNING MOLIYAVIY OQIBATLARI..... 25-31

Eshonkulov Shaxzod Eshkuvatovich

AHOLINING LOKAL-ETNOGRAFIK GURUHLARI VA ULAR BILAN BOG'LIQ

TOPONIMLAR 32-37

Olimov Nodirbek Anvarjon o'g'li

QO'QON XONLIGI ETNIK HOLATIGA OID MA'LUMOTLAR

(“TARIXI SHOHRUXIY” ASARI MISOLIDA) 38-41

Mo'minov Xusanboy Madaminjonovich, Daminova Mashhuraxon

DAVRIY MATBUOT VA UNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI..... 42-45

Ahmedov Bahodir Ismailovich

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIYASINING

TARIXIY BOSQICHLARI 46-55

Ravshanov Mahmud

ALISHER NAVOIYNING ASARLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN

FOYDALANISH MAHORAT: YECHIMLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUV MASALALARI..... 56-59

Asadova Ra'no Baymanovna

O'ZBEKISTON VA HINDISTON O'RTASIDAGI ILM-FAN HAMKORLIGI TARIXI

VA ZAMONAVIY BOSQICHLARI 60-64

Qurbonova Marg'uba

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TIL SIYOSATI EVOLYUTSIYASI

VA MILLIY IDENTITETNI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARI

(1991–2025 YILLAR TAHLILI) 65-68

Kamolova Habiba Muhammadiyevna

SOBIQ SOVET HOKIMIYATI YILLARIDA SHAHRISABZ IQTISODIY

INFRATUZILMASIDAGI ZIDDIYATLI O'ZGARISHLAR 69-74

Ergashev Umar Kuziyevich

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGI G'UZOR BEKLIGI AHOLISI

TARIXI (HARDURI ETNOGRAFIK GURUHI MISOLIDA) 75-79

Ergashev Akhror

THE FACTORS THAT HAVE LED TO INTERNAL CRISES IN PAKISTAN,

AND THE SUBSEQUENT STRENGTHENING OF THE MILITARY'S ROLE

IN THE COUNTRY'S POLITICAL LIFE 80-88

<i>Qurbonov Abbos Shonazarovich</i> SUN'YI INTELLEKT YORDAMIDA ARXIV HUJJATLARINI TAHLIL QILISH: YANGI TARIXIY YONDASHUVLAR	89-93
<i>Esanova Nilufar</i> CHET EL INVESTITSİYALARINING O'ZBEKISTON SANOAT SIYOSATIDAGI O'RNI: XALQARO HAMKORLIK TAJRIBASI ASOSIDA TAHLIL (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	94-97
<i>Askarxodjayev Yaminxon Muxammedovich</i> "MAORIF VA O'QUTG'UCHI" JURNALI "MEHNAT MAKTABI NIMA DEMAK?" MAQOLASIDA O'ZBEKISTON SSRDA AMALIY TA'LIM G'OYASINING DASTLABKI NAZARIY ASOSLARI (1925-YIL, 1-SONI MISOLIDA)	98-105
<i>Ismatova Zulfizar</i> O'ZBEK MILLIY KIIYIMLARINING TAVSIFI VA TASNIFI	106-114
<i>Abdualimova Durdona Shavkat qizi</i> G'AZNAVIYLAR QUDRATINING YEMIRILISH NUQTASI.....	115-125
<i>Xadjamuratova Matlyuba Xoshimovna</i> YOSHLARNI IJTIMOIIY HIMOYA QILISH – TADQIQOTLARNING MUHIM YO'NALISHI	126-129
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> ILMIY RAHBARLIK VA INNOVATSION BOSHQARUVDA O'ZBEK AYOL OLIMALARINING ROLI	130-134
08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI	
<i>Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna</i> O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA GEOLOGIYA VA YENGIL SANOAT TARMOQLARI O'RTASIDAGI INTEGRATSIYANING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	135-142
<i>Jumaniyazov Nodirbek Odilbek o'g'li</i> MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA SANOAT TARKIBIIY O'ZGARISHLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	143-151
<i>Sharipova Gulchehra Farhod qizi</i> IMPROVING THE PRACTICAL MECHANISM OF EDUCATION QUALITY MANAGEMENT BASED ON FOREIGN EXPERIENCE: IN THE CASE OF JAPAN	152-157
<i>Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li</i> MARKAZIIY OSIYO DAVLATLARIDA MAHALLIIY BOSHQARUV TIZIMLARIDA SUN'IY INTELLEKT QO'LLASH TAJRIBASI: O'ZBEKISTON UCHUN XULOSALAR	158-162
<i>Sharopov Nurmuhammad Bobirovich</i> DAVLAT SIYOSATI VA YASHIL IQTISODIYOT: SUBSIDİYALAR, SOLIQ VA RAG'BATLAR	163-166
<i>Ibragimov Nodir Nusriddinovich</i> AGRAR SEKTORNI INNOVATSION RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA EKONOMETRIK PROGNOZLASH USHLARINING TAKOMILLASHTIRILGAN YONDASHUVLARI	167-174

<i>Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich</i> CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH HAJMINI OSHIRISHDA BOZOR MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH.....	175-179
--	---------

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Raupova Ra'no Sohibovna</i> GLOBALASHUV VA AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA IBN SINO MEROSIDAN FOYDALANISH.....	180-184
<i>Mamayusupov Umidjon Kurbanovich</i> JAMIYATNI BOSHQARISHDA ILMIY BASHORATNING METODOLOGIK VA PROGNOSTIK VAZIFALARI	185-189
<i>Ergashev Ozodbek Shavkatovich</i> YANGI DAVR G'ARB FALSAFASIDA INSON MUAMMOSI	190-194
<i>Alimova Shaxnoza Xamidovna</i> NOGIRONLIGI BO'LGAN YOSHLARNING JAMIYAT HAYOTIDAGI TO'LAQONLI ISHTIROKI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR	195-205
<i>Tolipov Baxtiyor</i> YOSHLAR IQTISODIY FAOLLIGINING TARIXIY GENEZISI VA RIVOJLANISH OMILLARI	206-211
<i>Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich</i> AXBOROT TIZIMLARI, MAHSULOTLARI VA XIZMATLARIDAN AXBOROT BIZNESI MUHITINI YARATISH ASOSLARI.....	212-218
<i>Abdullayeva Ziyoda Nabiyevna</i> RAQAMLI JAMIYATDA AXLOQIY ISHONCHNI AVTOMATIK BAHOLASH TIZIMI	219-225
<i>Yekubova Mavluda Iskandarovna</i> RAQAMLASHGAN JAMIYATDA KOMMUNIKATIV REALLIK VA KOMMUNIKATIV RATSIONALLIK	226-232
<i>Madraximov Atabek Abduraximovich</i> EKOLOGIK TARBIYA HAMDA BILIM – EKOLOGIK MADANIYAT POYDEVORI	233-238
<i>Рахматов Нуриддин Негкадамович</i> МЕХАНИЗМ РАЗВИТИЯ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ В ТВОРЧЕСТВЕ ХУСЕЙНА ВОИЗА КАШИФИ	239-243
<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> YOSHLAR ORASIDA GIYOHVAND MODDALAR VA SPIRTLILIKLARGA QIZIQISHNING IJTIMOYIY SABAB VA OQIBATLARI	244-247
<i>Xudoykulov Azamat Beshumovich, Saidov Shomahmud Azamat o'g'li</i> INSON FALSAFASI	248-252
<i>Baratova Madina Xasanovna</i> KAMBAG'AL OILA FARZANDLARINING IJTIMOYIY FAOLLIGINI TA'MINLASH: INDIVIDUAL VA IJTIMOYIY OMILLAR	253-259
<i>Ismoilov Maxamadixon Isroilovich</i> IQTISODIY ADOLAT VA FAROVONLIK FALSAFASI: ETIK TAMOIYILLAR VA IJTIMOYIY NOMUTANOSIBLIKLAR TAHLILI	260-269
<i>Obidov Asliddin Shavkatovich</i> COSMIC UNITY AND MORAL CONSCIOUSNESS: REINTERPRETING FARGHANI'S COSMOLOGY THROUGH CHITTICK'S LENS	270-274

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Kaniyazova Jupargul Orinbayevna</i> THE RETROSPECTIVE PLOT IN THE SHORT NOVELS OF CH. AITMATOV	275-280
<i>Алиева Эльвина Аметовна, Нуруллаева Дилбар Алиевна</i> СПОСОБЫ ВЫРАЖЕНИЯ СРАВНЕНИЯ НА ЛЕКСИЧЕСКОМ, СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНОМ И МОРФОЛОГИЧЕСКОМ УРОВНЯХ (НА МАТЕРИАЛЕ РАССКАЗОВ А. И. КУПРИНА)	281-285
<i>Sanaqulova Fayoza</i> REKLAMA MATNLARIDA METAFORA TURLARI VA YONDOSH HODISALAR	286-289
<i>Ruzibayeva Aziza Kahramanovna</i> THE THEME OF EXILE AND ALIENATION IN BYRON'S POETRY	290-293
<i>Norqobilova Nigora Uralovna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI OLQISH VA QARG'ISH SO'ZLARING LINGVOMADANIY SHARTLANISHI	294-298
<i>Ahmedova Fayyoza Rashidovna</i> O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM RIVOJLANISHINING INFRATUZILMAVIY, RAQAMLI VA SOTSIOMADANIY DRAYVERLARI	299-306
<i>Elmuratova Zamira Khodjamuratovna</i> SOME PECULARITIES OF ENGLISH, KARAKALPAK AND TURKMEN PROVERBS ABOUT LABOR	307-310

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Sultanova Sabohat Alisherovna</i> FURTHER DEVELOPMENT OF THE INSTITUTE FOR ASSESSMENT OF REGULATORY IMPACT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AS AN ELEMENT OF "SMART REGULATION"	311-317
<i>Qushboqov Shohrux Xasan o'g'li</i> JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARINING TURLARI VA ULARNING FUQAROLIK-HUQUQIY MAQOMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI BORASIDA AYRIM MULOHAZALAR	318-328
<i>Egamberdiyev Vohidjon Otabekovich</i> JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDAN OZOD ETILGAN SHAXSLARNI IJTIMOY REABILITATSIYA QILISH VA MOSLASHTIRISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH	329-339
<i>Xushvaqtov O'tkir Temirovich</i> VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN JINOYATLAR PROFILAKTIKASI BO'YICHA MILLIY QONUNCHILIK NORMALARI TAHLILI	340-346
<i>Leonid Khvan Borisovich, Zilola Gulimova</i> THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN PUBLIC ADMINISTRATION	347-353
<i>Normatova Shirin Abdalnabiyevna</i> XOTIN-QIZLARGA NISBATAN ZO'RAVONLIKKA QARSHI KURASH BO'YICHA MILLIY QONUNCHILIKDAGI BO'SHLIQLAR TAHLILI	354-362

<i>Каюмова Асая Султномуродовна</i> ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВЫЕ РЕФОРМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРАКТИЧЕСКИЕ РЕЗУЛЬТАТЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	363-368
<i>Abdullayeva Sabohat Asatullo qizi</i> KRIPTOAKTIVLARGA OID JINOYATLAR VA XALQARO HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ...	369-377
<i>Imomniyozov Doniyorbek Baxtiyor o'g'li</i> VIRTUAL MULKNING HUQUQIY REJIMI: SUI GENERIS YONDASHUV	378-392
<i>Amonov Zavqiddin</i> ISLOM HUQUQIDA MULKIY HUQUQLAR PARADIGMASI	393-400
<i>Saidmuradov Najmiddin Nabijonovich</i> YUQORI INSTANSIYA SUDLARIDA PROKUROR ISHTIROKINING JINOYAT-PROTSESSUAL JIHATLARI	401-405
<i>Makhmudjanova Mokhirakhon</i> ANALYSIS OF INTERNATIONAL EXPERIENCE IN ENSURING GENDER EQUALITY	406-411
<i>Нормуродова Азиза Азимжон кизи</i> СЕКСУАЛЬНОЕ НАСИЛИЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИЗОБРАЖЕНИЙ: ПОНЯТИЕ, ФОРМЫ И ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ	412-418

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Utkirov Nusrat</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA HARAKAT SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA MUAMMOLI- MODULLI YONDASHUVLAR	419-424
<i>Jamolova Shahlo Qobilovna</i> BO'LAJAK FIZIKA FANI O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI DASTURIY TA'LIM VOSITALARIDAN FOYDALANIB RIVOJLANTIRISH METODIKASI ("REAL GAZLAR. MOLEKULALARARO O'ZARO TA'SIR. REAL GAZLAR. VAN-DER-VAALS TENGLAMASI" MAVZU MISOLIDA)	425-428
<i>Rasulova Moxidil</i> TIBBIYOT TA'LIMI TIZIMIDA FUNDAMENTAL FANLARNI O'ZLASHTIRISHDA TALABALAR BILIMINI BAHOLASHNING ASOSIY SABABLARI VA DIDAKTIK IMKONIYATLARI	429-438
<i>Ismailov Oybek Abdurasulovich</i> ANESTEZIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA ENTRUSTABLE PROFESSIONAL ACTIVITIES (EPA) TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB TALABALARGA MALAKAVIY TA'LIM BERISH	439-445
<i>Davlatova Nilufar Vosiljonovna</i> BO'LAJAK IQTISODCHI MUTAXASSISLARNING KREATIV IQTISODIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA PROBLEMALI VA LOYIHALI O'QITISH TEXNOLOGIYALARI	446-449

Received: 20 October 2025
Accepted: 15 November 2025
Published: 30 November 2025

Article / Original Paper

HISTORICAL STAGES OF THE ACADEMY OF THE MINISTRY OF INTERNAL AFFAIRS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Akhmedov Bakhodir Ismailovich

Chief Inspector of the Organizational and Staffing Group of the Personnel Department at the Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

Abstract. This article outlines the history of development of the Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, the stages of selection and training of personnel for internal affairs bodies, and provides suggestions for improving educational processes at the institution. Furthermore, it is acknowledged that the Academy's role in preparing highly qualified, patriotic personnel with modern knowledge for the Ministry of Internal Affairs system is of crucial importance in ensuring state security, public peace, and guaranteed protection of citizens' rights and freedoms.

Keywords: internal affairs bodies, educational institution, personnel training, specialization, educational processes.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIYASINING TARIXIY BOSQICHLARI

Ahmedov Bahodir Ismailovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kadrlar bo'limi

Tashkiliy -shtat ishlari guruhi bosh inspektori

E-mail: B.I.Axmedov1@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining rivojlanish tarixi, ichki ishlar organlari uchun kadrlarni tanlash va tayyorlab borish bosqichlari, ta'lim maskanida o'quv jarayonlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar berilgan. Bundan tashqari, IIV Akademiyasining IIV tizimida yuqori malakali, vatanparvar va zamonaviy bilimlarga ega kadrlarni tayyorlash davlat xavfsizligi, aholi tinchligi va fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini kafolatli himoya qilishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi e'tirof etilgan.

Kalit so'zlar: ichki ishlar organlari, ta'lim muassasasi, kadrlarni tayyorlash, mutaxassislik, o'quv jarayonlari.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI10Y2025N07>

Kirish. Har qanday davlatning barqaror taraqqiyoti va jamiyatda qonuniylik hamda huquqiy tartibotni ta'minlashda ichki ishlar organlari tizimi alohida o'rin tutadi. Bu tizimda yuqori malakali, vatanparvar va zamonaviy bilimlarga ega kadrlarni tayyorlash davlat xavfsizligi, aholi tinchligi va fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini kafolatli himoya qilishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining shakllanish tarixini ramziy ma'noda 3 bosqichga bo'lishimiz mumkin.

Birinchi bosqich: Mamlakatimiz huquqni muhofaza qilish tizimining evolyutsiyasi bilan uzviy bog'liq. Ushbu Akademiyaning ilk tamal toshi Toshkent militsiya maktabi sifatida qo'yilgan bo'lib, uning faoliyati o'tgan asrning boshlarida, ya'ni sovet tuzumi sharoitida

boshlangan. Mazkur maktab nafaqat respublika, balki butun Markaziy Osiyo miqyosida ichki ishlar organlari uchun mutaxassislar tayyorlaydigan yetakchi o'quv muassasasiga aylangan edi. Tarixiy jarayondagi siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar mazkur muassasaning tashkiliy tuzilmasi, o'quv dasturlari va tarbiyaviy faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatgan.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, mamlakatning barcha sohalarida bo'lgani kabi, huquqni muhofaza qilish tizimida ham tub islohotlar boshlangan davri bo'lib hisoblangan. Sobiq Ittifoq Ichki ishlar vazirligiga qarashli Toshkent Oliy maktabi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tasarrufiga o'tkaziladi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 2-sentyabrdagi qarori [1] va O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 1994-yil 20-oktyabrdagi buyrug'iga asosan [2] O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Oliy va o'rta maxsus maktablari negizida O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi tashkil etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 2-sentyabrdagi qarorining 1-bandida *"O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Oliy va o'rta maxsus militsiya maktablari negizida ichki ishlar organlari mutaxassislarini tayyorlash va boshliqlar tarkibi xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi tashkil etilsin"* va ushbu qarorning 2-bandida esa Akademiyaning asosiy vazifalari *"ichki ishlar organlarining oliy boshliqlar tarkibini tayyorlash"*, *"tanlov asosida ikki bosqichda ichki ishlar organlarining oliy va o'rta yuridik ma'lumotli boshliqlari tarkibini tayyorlash"*, *"huquq-tartibotni muhofaza qilish muammolarini tadqiq etish"* va *"ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash"* etib [1] belgilandi.

Bu qadam, avvalo, milliy manfaatlarga xizmat qiluvchi, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, davlatga sadoqatli kadrlarni tayyorlashda yangi bosqichni boshlab berdi. Shu bilan birga, Akademiya jamoasiga ta'limni zamon talablari darajasida yangidan tashkil qilish, ilmiy salohiyatni oshirish, ichki ishlar organlari uchun malakali huquqshunos kadrlar tayyorlash vazifalari yuklatildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 1996-yil 31-dekabrdagi buyrug'iga [3] asosan IIV Akademiyasining *"Ichki ishlar xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish fakultetiga"* qabul amaliyotda xizmat olib borayotgan sohaviy xizmat xodimlaridan (*jumladan, tezkor ishlar bo'yicha shahar, tuman IIB boshliqlari muovnlari lavozimiga nomzodlar, IIB jinoyat qidiruv bo'limlarining boshliqlari va ularning muovnlari, shahar, tuman IIB DAN katta nozirlari, IIBlari xorijga chiqish-kelish va fuqarolik bo'linmalarining katta nozirlari, balog'at yoshiga yetmaganlar bilan ishlash nozirlari, IIB, shahar, tuman, naqliyot IIBning umumiy ixtisosdagi tergovchilari va hokazolar*) iborat bo'lgan hamda ushbu xodimlar bilan qayta tayyorlash va malaka oshirish o'quv yig'inlari o'tkazib kelingan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Akademiyada mustaqillikka qadar 5 nafar fan doktori va 47 nafar fan nomzodlari faoliyat yuritgan, xolos [4].

Ikkinchi bosqich: O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida qisqa fursatda keng ko'lamli o'zgarishlar boshlab yuborildi. Akademiya kunduzgi ta'limda operativ *qidiruv, tergov, jinoyatlarning oldini olish va ekspert-kriminalistika* ixtisosliklari bo'yicha kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'ydi. O'quv dasturlari yangilanib, ta'limning samarali yondashuvlari joriy qilindi. Shuningdek, ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganishga alohida e'tibor qaratildi va mavjud binolar ta'mirlanib, yangi inshootlar barpo etildi.

1997-yil O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi hayotida muhim tarixiy voqea ro'y berdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga [5] asosan ta'lim maskaniga (*Ichki ishlar vazirligi Akademiyasiga*) jangovar bayroq topshirildi.

Bu davrga kelib, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni imzolandi va ushbu qonun barcha fuqarolarga ta'lim, tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini belgilab berdi [6].

1997-yildan boshlab, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlashning bakalavriat va magistraturadan iborat ikki bosqichli tizimga o'tildi. Yangidan tashkil qilingan magistraturada *"tergov faoliyati"*, *"operativ qidiruv faoliyati"*, *"ma'muriy-huquqiy faoliyat"*, *"ekspert-kriminalistik faoliyat"*, *"yo'llarda harakatlanish xavfsizligi davlat xizmati faoliyati"*, *"jazoni ijro etish muassasalari faoliyati"* ixtisosliklari bo'yicha magistrlar tayyorlash uchun ikki yillik ta'lim joriy qilindi.

O'sha davr nuqtai nazaridan, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 1997-yil 25-iyuldagi buyrug'iga [7] asosan IIV Akademiyasining *"Ichki ishlar xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish fakultetiga"* qabul qilish jarayonida amaliyotda xizmat olib borayotgan sohaviy xizmat xodimlaridan (*jumladan, shaxsiy tarkib bilan ishlash bo'yicha shahar, tuman IIB boshliqlari muvoynlari lavozimiga nomzodlar, militsiya uchastka nozirlari, shahar, tuman IIB hisobida turgan xodimlari, korrupsiya, reket va terrorizmga qarshi kurashish xizmati bo'limlarining boshliqlari, IIB profilaktika xizmati tarkibidagi "axloq militsiyasi" katta nozirlari, IIB jinoyat qidiruv bo'lim, bo'linmalarining tezkor vakillari va katta tezkor vakillari va hokazolar*) iborat bo'lgan hamda ushbu xodimlar bilan qayta tayyorlash va malaka oshirish o'quv yig'inlari o'tkazib kelingan.

Shu bilan birga, ta'lim sifatini oshirish maqsadida bosqichma-bosqich tarzda yangi kafedralar tashkil qilindi, ya'ni *Ichki ishlar organlarida boshqaruvni tashkil etish, Davlat va huquq nazariyasi va tarixi, Konstitutsiyaviy huquq, Inson huquqlari nazariyasi va amaliyoti, Jinoiy jazoni ijro etish, Ichki ishlar organlari faoliyatida psixologiya va pedagogika, Politologiya va kasb etikasi, Umumtibbiy tayyorgarlik* kafedralarini aytib o'tish mumkin.

Bulardan tashqari, Akademiya rahbariyati tomonidan ilmiy salohiyatga ustuvor ahamiyat qaratildi va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishda adyunktura, doktorantura yo'lga qo'yildi. Akademiya huzurida ilmiy darajalar beruvchi "Ixtisoslashgan kengash" tashkil qilindi.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishning ustuvor yo'nalishlari ishlab chiqildi va kafedralar qoshida ilmiy to'garaklar tashkil etish, ustoz-shogirdlik an'analari asosida yosh tadqiqotchilar safini ko'paytirish, dissertatsiya mavzularini ichki ishlar organlari faoliyatidagi eng ko'p muammolarga yo'naltirish va ularning natijalari yuzasidan amaliyotga kengroq joriy qilish kabi vazifalar belgilandi. Bunga misol tariqasida, yetuk olimlar *Akmal Saidov, Hojimurod Odilqoriyev, Shavkat O'razayev, Zarif Zaripov, Rauf Qayumov, Yuriy Po'latov, Abdug'affor Abdumajidov, Aleksandr Yakubov, Boris Mirenskiy, Erkin Arifjanov va Lyudmila Astanovalarning* ilmiy rahbarligida ko'pgina yosh olim tadqiqotchilar yetishib chiqqan va eng dolzarb mavzudagi dissertatsiyalar himoya qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi ta'limdagi olib borilgan chora-tadbirlar natijasida respublikamizning yetakchi oliy ta'lim muassasalari bilan o'zaro tajriba almashinuvini yo'lga qo'ydi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 1998-yil fevral oyidagi tegishli buyrug'i [8] bilan Akademiyada *Ichki ishlar organlari uchun rahbar kadrlarni tayyorlash fakulteti* tashkil etildi. Ushbu fakultetda o'qitishning zamonaviy yondashuvlari tatbiq qilinib, ta'lim olayotganlarning rahbarlikka oid bilim va ko'nikmalarni yaxshi o'zlashtirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berildi.

Rahbar kadrlarni tayyorlash borasidagi vazifalarni bajarish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 1999-yildagi buyrug'iga [9] asosan 5A380125-“Huquqni muhofaza qilish faoliyati menejmenti” ixtisosligi bo'yicha “magistr” akademik darajasini beruvchi M-380201 yo'nalishdagi davlat oliy ta'lim standarti ishlab chiqilib tasdiqlandi va ushbu standartlarga asosan fakultetda o'qitilayotgan tegishli fanlar blokiga kiruvchi 27 ta o'quv fani bo'yicha (gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy, matematik, tabiiy fanlar, rahbarlikka yo'naltiruvchi va maxsus fanlar) o'quv dasturlari ishlab chiqildi. Ikki yillik o'qishni bitirganlarga “*Ichki ishlar organlarining boshqaruv faoliyati*” mutaxassisligi bo'yicha diplom berildi.

Keyinchalik fakultet Oliy akademik kurslar maqomini olib, bunda bir yillik o'quv dasturi asosida rahbar kadrlar tayyorlagan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida islohotlar davrida Sirtqi ta'lim fakulteti yangidan tashkil qilindi va ushbu fakultet 2004-yilga qadar faoliyat yuritgan holda 8 mingga yaqin yuristlar tayyorladi.

Metodologiya. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 23-sentyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasida ichki ishlar idoralari mutaxassislarini tayyorlashni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori [10] bilan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida kadrlarni tayyorlashning kunduzgi o'qitish turi bo'yicha quyidagilar amalga oshirildi:

a) ichki ishlar idoralarining ofitserlar tarkibi bo'yicha:

–“*jinoyatlarni oldini olish faoliyati*”, “*tezkor-qidiruv faoliyati*”, “*tergov faoliyati*”, “*ekspertiza-kriminalistika faoliyati*” yo'nalishlarida to'rt yil mobaynida o'qitilishi va “huquqshunos” mutaxassisligi berilishi;

–“*ichki ishlar idoralarida boshqaruvni tashkil etish*” yo'nalishida bir yil mobaynida o'qitilishi va “*jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashda boshqaruv tashkilotchisi*” mutaxassisligi berilishi (oliy huquqshunoslik mutaxassisligi asosida);

b) ichki ishlar idoralarining serjantlar tarkibi bo'yicha:

–“*patrul-post faoliyati*”, “*yo'l-patrul faoliyati*”, “*qo'riqlash faoliyati*”, “*texnik-muhandislik faoliyati*”, “*yong'in xavfsizligi faoliyati*”, “*pasport-viza faoliyati*”, “*jazoni ijro etish faoliyati*” va boshqa mutaxassisliklar (serjantlik lavozimlarini egallash uchun) yo'nalishlarida olti oy mobaynida o'qitilishi va “*ichki ishlar idoralari mutaxassisi*” mutaxassisligi berilishi yo'lga qo'yildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida tashkil etilgan serjantlar tarkibini tayyorlash oliy kurslarida *huquqiy fanlar, maxsus fanlar, gumanitar va ijtimoiy-huquqiy fanlar, xizmat-jangovar va jismoniy tayyorgarlik sikllari* tashkil qilindi [11]. Olti oylik kurslarda ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlarining serjantlik lavozimlari uchun kadrlar tayyorlab berildi.

Muhokama. 2010-yillarga kelib, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi yurtimizning yetakchi oliy ta'lim muassasalaridan biriga aylandi. Akademiya

dargohida huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun kadrlar tayyorlash, ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirishning yaxlit tizimi yaratildi – desak mubolag'a bo'lmaydi. O'sha yillarda ta'lim maskanida *to'rtta o'quv binosi, ma'ruza zallari, o'quv va metodik xonalar, ikkita o'q otish tiri, kriminalistik poligon, sport majmuasi, kutubxona, oshxona* kabi inshootlar barpo etildi. Shuningdek, jangovar va taktik amaliy mashg'ulotlar esa Toshkent shahridan chetqda joylashgan o'quv dala poligonida olib borilar edi.

Shu bilan birga, 2012-yilda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi hududida *namunali ichki ishlar organlari tayanch punkti* tashkil etildi va huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati ixtisosligi bo'yicha amaliy mashg'ulotlarning ushbu maskanda o'tkazilishi yo'lga qo'yildi.

2016-yildan boshlab O'zbekiston o'z taraqqiyotining yangi davriga qadam qo'ydi. O'zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlar Oliy bosh qo'mondoni muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida barcha sohalarda bo'lgani kabi ichki ishlar organlari tizimi ham tubdan isloh qilindi. Ichki ishlar organlarini aholi bilan bevosita yaqindan ishlaydigan, xalq manfaatlariga xizmat qiladigan xalqchil tuzilmaga aylantirish ustuvor maqsad etib belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni [12] bilan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi tasdiqlandi. Harakatlar strategiyasining "*qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishga yo'naltirilgan sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash, ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimi samarasini oshirish, sud jarayonida tortishuv tamoyilini to'laqonli joriy etish, yuridik yordam va huquqiy xizmatlar sifatini tubdan yaxshilash*" ikkinchi ustuvor yo'nalishi bo'yicha ichki ishlar organlariga aniq vazifalar belgilab berildi.

Uchinchi bosqich: Islohotlar jarayonida davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 29-iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasiga tashrifi, tom ma'noda, tarixiy ahamiyat kasb etdi. Prezidentimiz tashrif chog'ida 2017-2021-yillarda Akademiyani rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha loyihalar bilan tanishdi.

Mazkur tashrifdan so'ng o'quv dargohining nufuzi va maqomini oshirish, moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlashga alohida e'tibor qaratildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-avgustdagi "Ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori [13] imzolandi. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va uning tasarrufidagi ta'lim muassasalariga quyidagi 8 ta ustuvor yo'nalish bo'yicha eng muhim masalalarni hal qilish asosida ichki ishlar organlari kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini rivojlantirish vazifalari yuklatildi. Ushbu qaror bilan Akademiyada kadrlar salohiyatini oshirishga imkon beradigan yangi tizim yaratildi.

Jumladan, 2018/2019 o'quv yilidan boshlab kunduzgi ta'limda o'qish muddati uch yil etib belgilandi va amaldagi mutaxassislik yo'nalishlari qatoriga "*yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash faoliyati*" va "*xizmat faoliyatini psixologik ta'minlash*" kabi 2 ta ixtisoslik qo'shildi. Ta'lim jarayonida mutaxassislik fanlari ko'paytirilib, kafedralar faoliyati maqbullashtirildi.

Shuningdek, ushbu qaror bilan [13] O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining kunduzgi shakliga Ichki ishlar vazirligi akademik litseylari, harbiy akademik litseylar bitiruvchilari hamda ichki ishlar organlari xodimlarini o'qishga qabul qilish belgilandi.

Sirtqi ta'lim fakulteti qaytadan tashkil etilib, *“jinoyatlarning oldini olish va fosh etish faoliyati”* mutaxassisligi bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi.

Natijalar. Serjantlar tarkibini tayyorlash bo'yicha oliy kurslar negizida *“Kasbiy tayyorgarlik fakulteti”* tashkil qilindi hamda ichki ishlar organlarining serjant va ofitserlar tarkibi xodimlarini maxsus kasbiy tayyorlash, ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kabi vazifalar amalga oshirildi. Fakultetda *“profilaktika faoliyati”, “yo'l-patrul faoliyati”, “migratsiyani ta'minlash va fuqarolikni rasmiylashtirish faoliyati”, “patrul-post faoliyati”, “qo'riqlash faoliyati”, “jazoni ijro etish faoliyati”, “ma'muriy faoliyatni ta'minlash”* mutaxassisliklari bo'yicha kadrlar tayyorlandi. Mazkur qarorlar asosida Akademiyaning kunduzgi ta'lim shakliga o'qishga kirgan shaxslarga-kursant, Sirtqi ta'lim, Kasbiy tayyorgarlik va Rahbar kadrlarni tayyorlash fakultetlariga o'qishga kirgan shaxslarga esa-tinglovchi maqomi berildi.

Jamiyat hayotida kechayotgan buyuk o'zgarishlar, ichki ishlar organlari tizimidagi keng qamrovli islohotlarga hamohang tarzda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida ta'lim sifati tubdan takomillashtirildi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-apreldagi *“Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida”*gi qaroriga [14] asosan 2021/2022 o'quv yilidan boshlab, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida kadrlarni tayyorlash jarayoniga bakalavriat va magistraturani o'z ichiga oluvchi ikki bosqichli oliy ta'lim tizimi joriy etildi. Unga ko'ra, Akademiyada kunduzgi ta'lim bakalavriatida kadrlarni maqsadli kasbiy tayyorlash va birinchi kursdan boshlab mutaxassislik hamda yuridik fanlarni o'qitish, jangovar va jismoniy jihatdan chuqurlashtirilgan holda tayyorlashga alohida e'tibor qaratildi.

Modulli o'qitish tizimi yo'lga qo'yilib, mashg'ulotlarning 60 foizi nazariya va qolgan 40 foizi amaliyotga yo'naltirildi. Shuningdek, kursantlarning ixtisoslik yo'nalishlari bo'yicha amaliy ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida poytaxtimizning *Yunusobod, Yashnobod* va *Mirzo Ulug'bek* tumanlari ichki ishlar organlari hamda mahalla huquq-tartibot maskanlarida bazaviy amaliyot mashg'ulotlari o'tkazilishi joriy etildi.

Magistraturada o'quv jarayoni xizmatdan ajralmagan holda kunduzgi ta'lim shaklida tashkil etilib, modulli o'qitish tizimi asosida amalga oshiriladi [15] va tinglovchilarni ichki ishlar organlarining asosiy faoliyat yo'nalishlarini samarali boshqarishga qodir universal rahbar etib tayyorlashga alohida e'tibor qaratib boriladi.

Mashg'ulotlarga eng tajribali professor-o'qituvchilar bilan bir qatorda, Ichki ishlar vaziri o'rinbosarlari, vazirlik sohaviy xizmatlari rahbarlari hamda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari vakillari, mahalliy va xorijiy yetakchi ta'lim muassasalarining olimlari jalb etib kelinmoqda.

Shuningdek, har yilda tinglovchilarning rahbarlik ko'nikmalarini shakllantirish, amaliy tajribalarini oshirish va dunyoqarashini kengaytirish maqsadida xorijiy davlatlarda qisqa muddatli o'quv kurslari tashkil etib kelinmoqda.

Magistraturada tahsil olayotgan tinglovchilarning mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi faolligini oshirish maqsadida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qonun muhokamalari hamda yalpi majlislarida muntazam qatnashib borishlari yo'lga qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi "Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori [16] bilan Akademiyada yangi mexanizmlar joriy etilishi belgilandi. Unga ko'ra, hududiy ichki ishlar organlari ehtiyojini inobatga olib, Ichki ishlar vazirligining akademik litsey bitiruvchilari uchun Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida bakalavriatning "Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati" ta'lim yo'nalishiga, to'lov-kontrakt asosida o'qitishni nazarda tutgan holda, 200 nafargacha qo'shimcha har yillik qabul kvotasi kiritildi. Shuningdek, 2024/2025 o'quv yilidan boshlab Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining magistraturasida "ilmiy-pedagogik faoliyat" mutaxassisligi [16] bo'yicha ichki ishlar organlari uchun ilmiy-pedagogik kadrlarni maqsadli tayyorlashga qaratilgan o'quv jarayoni yo'lga qo'yilishi ta'minlandi.

Davlatimizda ta'limni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar natijasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 22-yanvardagi "Raqamli texnologiyalar vositasida sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish sohasi uchun professional kadrlar tayyorlash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori [17] bilan Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida bakalavriatning "yurisprudensiya" ta'lim yo'nalishida o'qish to'rt yil muddatini tashkil etadigan yangi "Raqamli texnologiyalar sohasida jinoyatlarga qarshi kurashish faoliyati" yo'nalishini joriy etish belgilandi.

Ushbu qarorga ko'ra, Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida "Raqamli texnologiyalar sohasida jinoyatlarga qarshi kurashish faoliyati" yo'nalishi bo'yicha o'quv jarayoni huquqbuzarliklar profilaktikasi, tezkor-qidiruv va ekspert-kriminalistika faoliyatlariga ixtisoslashgan holda dual ta'lim tizimi asosida tashkil etiladi [17], shuningdek, bu yo'nalishda tahsil olayotgan kursantlarning ish o'rganish amaliyotini ichki ishlar organlari kiberxavfsizlik hamda axborot texnologiyalari sohasida jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'linmalarida o'tashlari belgilandi.

Yangi 2025/2026 o'quv yilidan boshlab, Akademiya tuzilmasining mavjud shtatlar doirasida *kiberhuquq, aniq fanlar, raqamli texnologiyalar va axborot xavfsizligi* hamda *kriminalistik ekspertizalar kafedralarini* o'z ichiga oluvchi *Kiberxavfsizlik va raqamli kriminalistika fakulteti* tashkil etildi [17].

Shu bilan birga, Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va probatsiya faoliyati", "Tezkor-qidiruv faoliyati" va "Jazoni ijro etish faoliyati" bo'yicha bakalavriat ta'lim yo'nalishlari o'quv dasturlariga "Raqamli texnologiyalar vositasida sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish asoslari" fani kiritilishi [17] yo'lga qo'yildi hamda raqamli texnologiyalar vositasida sodir etilgan jinoyatlarga qarshi kurashish yo'nalishida professional kadrlarni tayyorlash tizimini joriy etish bo'yicha "yo'l xaritasi"ning 1-ilovasiga muvofiq raqamli texnologiyalar vositasida sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish maqsadida Ichki ishlar vazirligi Akademiyasiga Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti o'quv-metodik va axborot-resurs jihatdan hamda innovatsion ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda hamkorlik qilishi belgilandi.

Muxtasar qilib aytganda, o'tgan yillar mobaynida va hozirgi davr nuqtai nazaridan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi mamlakatimizning huquqni muhofaza qiluvchi organlari uchun har jihatdan yetuk va malakali kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasasi sifatida shakllanib bormoqda.

Xulosa.Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, Yangi O'zbekiston uchun O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida professional kadrlar tayyorlash borasidagi ishlarni yanada takomillashtirish va jadallashtirish yuzasidan quyidagilar taklif etiladi:

birinchidan, IIV Akademiyasi kursantlarida ichki ishlar organlari va Akademiyaning tarixi haqida umumiy va mukammal tushunchalarni shakllantirish, O'zbekiston ichki ishlar organlari tizimi va Akademiyaning rivojlanish bosqichlarini, muhim tarixiy voqealarini va jamiyatdagi o'rnini aniq anglatish, tarixiy bilimlarning amaliy faoliyatda qo'llanilishiga asos yaratish maqsadida, o'quv dars jadvallariga *"O'zbekiston ichki ishlar organlari tarixi va IIV Akademiyasi tarixi"* nomli fanlarni kiritish, kurs moduliga har ikki fanning muhim mavzularini ochib berish, shuningdek ular o'rtasidagi bog'liqlik va o'zaro ta'sirlarini o'rganish, kursantlarga ushbu fanlar bo'yicha ilmiy-pedagogik yondashuvlardan foydalangan holda, nazariy va amaliy bilimlarni berish taklif etiladi.

Buni amalga oshirish uchun yangi o'quv dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash, unda ikki fanning muhim mavzularini integratsiyalashtirish, ixtisoslashgan tarix fani o'qituvchilarini jalb qilish, darslar ma'ruza, seminar, tarixiy hujjatlar va amaliyot asosida o'tkazish, tarixiy mavzular bo'yicha taqdimotlar, muhokamalar va topshiriqlar berib borish, kursantlarning bilimni baholash uchun testlar, yozma ishlar va og'zaki imtihonlar tashkil etish, har yili tarixiy tadbirlar, ekskursiyalar va ilmiy anjumanlar o'tkazib borilishi lozim bo'ladi.

ikkinchidan, fidoyi xodimlar hayoti misolida kursantlarga ibrat ko'rsatish va ularda kasbiy g'urur uyg'otish maqsadida, har oy yoki semestrda ichki ishlar organlari sohasida samarali xizmat qilgan shaxslar haqida o'quv kurslarini tashkil etish taklifi kiritiladi.

Buni amalga oshirish uchun ichki ishlar organlari tizimida samarali xizmat qilgan va hozirda nafaqada bo'lgan xodimlarning biografiyalari asosida ma'lumotlar tayyorlash va ushbu xodimlarning muqaddam xizmat faoliyatiga oid videointervyular, suhbatlar va ma'ruzalar o'tkazish nazarda tutiladi.

uchinchidan, kursantlarni tarixiy voqealardan saboq chiqarish, tahlil qilish va qaror qabul qilish ko'nikmalarini oshirish maqsadida, ichki ishlar organlari tarixidagi voqealarni modellashtirgan holda amaliyot mashg'ulotlarini tashkil etish taklifi kiritiladi.

Buni amalga oshirish uchun tarixiy voqealar asosida qotilliklar, tartibsizliklar va jamoat tartibini saqlashda o'tkazish rejalashtirilgan operatsiyalar asosida ssenariylar yaratish, simulyatsiya usulida treninglar tashkil etiladi.

to'rtinchidan, kursantlarning bilimlarini rag'batlantirish va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish maqsadida, kursantlar o'rtasida tarix fanidan olimpiada, esse tanlovi va viktorinalar o'tkazish taklif etiladi.

Buni amalga oshirish uchun kursantlarga sinov savollari va topshiriqlarni tayyorlash, tanlov g'oliblariga diplom va mukofotlar berish ko'zda tutiladi.

beshinchidan, kursantlarda vizual materiallar orqali tarixni yodda saqlashni osonlashtirish va qiziqishni uyg'otish, tarixiy voqealarni aniq va jonli tarzda anglash imkoniyatini yaratish, kursantlar o'rtasida tarixiy mavzular bo'yicha mulohaza va tanqidiy

fikrlash qobiliyatini rivojlantirish maqsadida, ichki ishlar organlari mavzusidagi filmlar, hujjatli videolarni muntazam ravishda kursantlarga namoyish qilib borish taklifi kiritiladi.

Buni amalga oshirish uchun Akademiyaning axborot xizmati hamda axborot-resurs markazi bilan hamkorlikda namoyishlarni tashkil qilish, kursantlarni namoyishlarga faol jalb qilish uchun ilgari surilgan mavzular bo'yicha savollar va bahslarni tashkil etish, namoyishdan keyin kursantlardan film haqida fikr va mulohazalarini yozma yoki og'zaki tarzda to'plash, ma'qul bo'lgan filmlar ro'yxatini tayyorlash va davriy ravishda yangilab borishni taqozo etadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 2-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasini tashkil etish to'g'risida"gi 447-sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi IIVning 1994-yil 20-oktabrdagi 264-sonli buyrug'i.
3. O'zbekiston Respublikasi IIVning 1996-yil 31-dekabrdagi 337-son buyrug'i.
4. Matlyubov B.A. O'zbekistonda jamoat tartibi va xavfsizlikni ta'minlash tarixi (ichki ishlar organlari misolida): monografiya/-T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2021-yil, 483-bet.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 26-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar idoralarining jangovar bayrog'i to'g'risida"gi PF-1663-son farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustdagi "Ta'lim to'g'risida"gi 464-I-son qonuni (24.09.2020 yilda hujjat o'z kuchini yo'qotgan).
7. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 1997-yil 25-iyuldagi 152-son buyrug'i.
8. O'zbekiston Respublikasi IIVning 1998-yil 26-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida ichki ishlar organlari uchun rahbar kadrlarni tayyorlash fakultetini tashkil etish to'g'risida"gi buyrug'i.
9. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 1999-yil 7-iyundagi 192-sonli buyrug'i.
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 23-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasida ichki ishlar idoralari mutaxassislarini tayyorlashni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 442-69-sonli qarori.
11. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2004-yil 27-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasida ichki ishlar idoralari mutaxassislarini tayyorlashni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 442-69-sonli qarori talablaridan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining shtatlarini qayta e'lon qilish haqida"gi buyrug'i.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son farmoni.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-avgustdagi "Ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3216-sonli qarori.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-apreldagi "Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5076-son qarori.
15. O'zbekiston Respublikasi IIVning 2021-yil 26-maydagi "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida magistratura faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 177-son buyrug'i.

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi "Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 10-son qarori.
17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 22-yanvardagi "Raqamli texnologiyalar vositasida sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish sohasi uchun professional kadrlar tayyorlash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 17-son qarori.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).